


## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko`ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 28 664,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 17,6 %ga o`tdi. Shu jumladan, eksport hajmi 11 324,0 mln. AQSh dollarga (3,2 %ga kamaygan) va import hajmi 17 340,7 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 36,8 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 6 016,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

### O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo`shilgan

qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo`naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Misol tariqasida, paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi bo`yicha o`zgarish tendentsiyalarini ko`rishimiz mumkin. 2015 yil yanvar-noyabr oylarida paxta tolasini eksporti umumiy eksportning 5,3% ini tashkil etgan bo`lib, jami eksport hajmi 409,3 ming tonnaga yetgan bo`lsa, 2016 yilning yanvar-noyabr oylarida jami 348,9 ming tonna paxta tolasini eksport qilingan. 2017 yil yanvar-noyabr oylari natijalariga ko`ra, esa paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi 3,4 %gacha kamayib, eksport hajmi 246,9 ming tonnani tashkil qildi.

Mazkur o`zgarish tendentsiyasini esa paxta xom-ashyosini yuqori qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportga yo`naltirilishi bilan izohlashimiz mumkin bo`ladi.


### **Eksportda paxta tolasini ulushining dinamikasi, %** (yanvar-noyabr oylarida)



Joriy yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga nazar tashlasak, paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi avvalgi yillarning shu davriga nisbatan sezilarli darajada kamayganini ko`rishimiz mumkin. Ushbu davrda jami 110,9 ming tonna paxta tolasini eksport qilingan.

Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2018 yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, oktyabr oyiga nisbatan 97,6 mln. AQSh dollarga ko`proq eksport qilindi va 975,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovlar va xizmatlar importi hajmi esa 1828,1 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo`lib, bu esa oktyabr oyiga nisbatan 11,2 mln. AQSh dollariga ko`proqdir.

**2018 yilda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko`rsatkichlari dinamikasi**  
(mln. AQSh dollari)



2018 yil yanvar-noyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o`zgarishsiz qolmoqda.

**Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Xitoy	5677,4	2502,6	3174,8	19,8	132,2
Rossiya	5094,1	1893,3	3200,8	17,8	117,4
Qozog`iston	2610,7	1253,3	1357,4	9,1	138,6
Turkiya	1930,6	810,1	1120,5	6,7	139,4

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Koreya Respublikasi	1784,0	83,7	1700,3	6,2	144,9
Germaniya	712,1	42,5	669,7	2,5	126,0
Afg`oniston	558,7	556,7	2,0	1,9	102,7
Yaponiya	525,2	12,4	512,9	1,8	360,5
Latviya	392,1	37,4	354,7	1,4	151,1
Ukraina	391,0	91,2	299,8	1,4	156,6
Belarus	380,5	35,5	345,0	1,3	245,1
Qirg`iziston	363,0	241,3	121,7	1,3	154,5
AQSh	355,1	28,1	327,0	1,2	183,3
Tojikiston	352,0	208,5	143,5	1,2	162,4
Frantsiya	276,8	173,4	103,4	1,0	118,8
Eron	271,9	153,4	118,5	0,9	90,8
Italiya	268,7	22,2	246,5	0,9	173,3
Litva	258,4	9,7	248,7	0,9	109,3
Hindiston	255,8	21,2	234,7	0,9	82,9
Turkmaniston	244,0	44,0	200,1	0,9	153,3

Respublikamizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,2 %ni tashkil yetdi hamda tashqi savdo aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan 32,4 % ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-noyabr oylarida 61,1 %ni tashkil qilgan bo`lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,8 %ga yetdi.

## O`zbekiston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-noyabr	2016 yil yanvar-noyabr	2017 yil yanvar-noyabr	2018 yil yanvar-noyabr
<b>Xitoy</b>	<b>4 302,5</b>	<b>3 808,8</b>	<b>4 295,1</b>	<b>5 677,4</b>
eksport	2 182,4	1 794,7	1 824,0	2 502,6
import	2 120,1	2 014,1	2 471,1	3 174,8
saldo	62,2	- 219,4	- 647,2	- 672,2
<b>Rossiya</b>	<b>4 134,1</b>	<b>3 763,9</b>	<b>4 340,8</b>	<b>5 094,1</b>
eksport	1 651,4	1 616,9	1 879,0	1 893,3
import	2 482,8	2 147,0	2 461,8	3 200,8
saldo	- 831,4	- 530,2	- 582,9	- 1 307,6
<b>Qozog`iston</b>	<b>2 550,9</b>	<b>1 694,7</b>	<b>1 883,1</b>	<b>2 610,7</b>
eksport	1 756,5	862,1	969,9	1 253,3
import	794,4	832,6	913,3	1 357,4
saldo	962,1	29,4	56,6	- 104,0
<b>Turkiya</b>	<b>1 103,0</b>	<b>1 061,6</b>	<b>1 385,1</b>	<b>1 930,6</b>
eksport	710,5	619,3	785,3	810,1
import	392,5	442,3	599,8	1 120,5
saldo	318,1	177,1	185,4	- 310,4
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 601,6</b>	<b>916,4</b>	<b>1 231,1</b>	<b>1 784,0</b>
eksport	138,4	151,6	98,2	83,7
import	1 463,3	764,8	1 132,9	1 700,3
saldo	- 1 324,9	- 613,2	- 1 034,7	- 1 616,6
<b>Germaniya</b>	<b>478,4</b>	<b>475,4</b>	<b>565,2</b>	<b>712,1</b>
eksport	27,3	25,3	23,9	42,5
import	451,1	450,1	541,2	669,7
saldo	- 423,9	- 424,8	- 517,3	- 627,2

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-noyabr	2016 yil yanvar-noyabr	2017 yil yanvar-noyabr	2018 yil yanvar-noyabr
<b>Afg`oniston</b>	<b>412,7</b>	<b>456,3</b>	<b>544,0</b>	<b>558,7</b>
eksport	412,1	453,9	541,9	556,7
import	0,6	2,4	2,1	2,0
saldo	411,5	451,5	539,8	554,7
<b>Yaponiya</b>	<b>245,0</b>	<b>230,4</b>	<b>145,7</b>	<b>525,2</b>
eksport	7,1	11,7	11,3	12,4
import	237,8	218,7	134,3	512,9
saldo	- 230,7	- 207,0	- 123,0	- 500,5
<b>Latviya</b>	<b>164,4</b>	<b>275,7</b>	<b>259,6</b>	<b>392,1</b>
eksport	38,1	51,2	72,0	37,4
import	126,3	224,5	187,6	354,7
saldo	- 88,1	- 173,3	- 115,6	- 317,4
<b>Ukraina</b>	<b>318,5</b>	<b>229,7</b>	<b>249,6</b>	<b>391,0</b>
eksport	59,4	44,6	91,4	91,2
import	259,1	185,1	158,2	299,8
saldo	- 199,7	- 140,5	- 66,8	- 208,6
<b>Belarus</b>	<b>102,7</b>	<b>102,9</b>	<b>155,2</b>	<b>380,5</b>
eksport	18,0	16,1	24,1	35,5
import	84,8	86,8	131,2	345,0
saldo	- 66,8	- 70,6	- 107,1	- 309,5
<b>Qirg`iziston</b>	<b>124,0</b>	<b>150,7</b>	<b>234,9</b>	<b>363,0</b>
eksport	89,6	108,3	164,9	241,3
import	34,4	42,3	70,1	121,7
saldo	55,1	66,0	94,8	119,6
<b>AQSh</b>	<b>253,6</b>	<b>437,2</b>	<b>193,8</b>	<b>355,1</b>
eksport	23,3	42,6	21,8	28,1
import	230,3	394,5	172,0	327,0



(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-noyabr	2016 yil yanvar-noyabr	2017 yil yanvar-noyabr	2018 yil yanvar-noyabr
saldo	- 207,1	- 351,9	- 150,1	- 298,8
<b>Tojikiston</b>	<b>154,1</b>	<b>180,3</b>	<b>216,7</b>	<b>352,0</b>
eksport	147,5	151,8	166,1	208,5
import	6,6	28,5	50,6	143,5
saldo	141,0	123,3	115,5	64,9
<b>Frantsiya</b>	<b>287,1</b>	<b>234,9</b>	<b>233,0</b>	<b>276,8</b>
eksport	146,1	102,0	132,7	173,4
import	141,1	132,9	100,3	103,4
saldo	5,0	- 30,9	32,4	69,9
<b>Eron</b>	<b>323,6</b>	<b>335,9</b>	<b>299,5</b>	<b>271,9</b>
eksport	266,3	284,0	247,7	153,4
import	57,3	52,0	51,8	118,5
saldo	209,0	232,0	195,9	34,9
<b>Italiya</b>	<b>153,6</b>	<b>170,8</b>	<b>155,0</b>	<b>268,7</b>
eksport	10,6	21,5	16,5	22,2
import	142,9	149,3	138,5	246,5
saldo	- 132,3	- 127,8	- 122,0	- 224,3
<b>Litva</b>	<b>261,2</b>	<b>260,6</b>	<b>236,3</b>	<b>258,4</b>
eksport	4,6	4,3	5,6	9,7
import	256,6	256,3	230,7	248,7
saldo	- 251,9	- 252,0	- 225,1	- 239,0
<b>Hindiston</b>	<b>287,5</b>	<b>322,5</b>	<b>308,5</b>	<b>255,8</b>
eksport	43,2	37,0	30,1	21,2
import	244,3	285,5	278,4	234,7
saldo	- 201,1	- 248,5	- 248,3	- 213,5
<b>Turkmaniston</b>	<b>308,9</b>	<b>199,4</b>	<b>159,2</b>	<b>244,0</b>
eksport	97,1	75,0	65,3	44,0


(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-noyabr	2016 yil yanvar-noyabr	2017 yil yanvar-noyabr	2018 yil yanvar-noyabr
import	211,8	124,4	93,9	200,1
saldo	- 114,8	- 49,4	- 28,6	- 156,1

## EKSPORT

2018 yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 11 324,0 mln. AQSh dollarga (3,2 % ga kamaygan) teng bo`ldi. eksport tarkibida tovarlar 75,5 % ulushga ega, bular asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari (21,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,0 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,3 %) guruhlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)






## Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajimga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajimga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajimga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	11324,0	96,8	100,0	4549,2	121,0	100,0	6774,8	85,3	100,0
<b>Paxta tolasi</b>	213,2	50,6	1,9	3,2	34,4	0,1	210,0	51,0	3,1
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	1020,4	128,2	9,0	683,8	131,0	15,0	336,6	122,9	5,0
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	824,5	103,2	7,3	342,6	110,5	7,5	481,9	98,5	7,1
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	2374,9	157,2	21,0	1077,6	138,9	23,7	1297,3	176,5	19,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	910,1	111,1	8,0	139,9	109,5	3,1	770,2	111,4	11,4
<b>Mashina va asbob - uskunalar</b>	182,0	57,0	1,6	129,5	61,4	2,8	52,5	48,4	0,8
<b>Xizmatlar</b>	2775,2	125,0	24,5	1386,2	127,6	30,5	1389,0	122,6	20,5
<b>Oltin</b>	1558,1	47,8	13,8	-	-	-	-	-	-
<b>To`qimachilik mahsulotlari</b>	1178,4	115,3	10,4	647,8	107,5	14,2	560,6	133,4	8,3
<b>Boshqalar</b>	287,2	185,2	2,5	138,6	84,2	3,0	118,6	3,5 b.	1,7

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o`shish sur`atlari bo`yicha quyida keltirilgan ma`lumotlardan shuni ko`rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida eng yuqori o`shish sur`atlari yanvar, aprel, iyun, avgust va noyabr oylarida kuzatilgan.

### Tovar va xizmatlar eksportining o`shish sur`atlari dinamikasi (o`tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o`shish sur`atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar oktyabr oyiga nisbatan 11,1 %ga oshgan.

### 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi


	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>					
meva mahsulotlari	343,0	143,5	alkogolli va alkogolsiz ichimliklar	10,9	66,5
sabzavot mahsulotlari	282,3	145,6	qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	27,2	100,0
bug`doy	20,5	43,3	qalampir	9,9	162,3
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>					
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	418,5	103,4	farmatsevtika mahsulotlari	10,7	2,7 b.
ammiak	1,4	18,9	karbonatlar; peroksokarbonatlar	13,3	97,1

o`g`itlar	125,6	82,5	kimyoviy shtapelli tola	7,6	116,9
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>					
tabiiy gaz	2156,1	164,1	motor moylari	11,8	111,3
tarkibida oltingugurt bo`lgan yoqilg`ilar	6,3	110,5	qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari	36,5	2,6 b.
elektroenergiya	151,2	116,5			
<b>Qora va rangli metallar</b>					
mis va mis buyumlari	512,1	108,5	rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari)	205,7	99,8
temir burchaklar, prutkalar va maxsus profillar	178,2	139,4	qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	1,3	31,0
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>					
simlar va kabellar	18,8	84,7	engil avtomobil	29,3	24,7
transformatorlar va akkumulyatorlar	12,3	60,9	avtobuslar va mikroavtobuslar	5,8	170,6
elektr zanjirlarini almashtirish yoki himoya qilish jihozlari	10,5	56,8	yuk vagonlari (tsisternalarni qo`shgan holda)	9,9	1,8 b.
avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar	3,4	109,7	yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	6,0	105,3
monitorlar va proektorlar	10,1	134,7	tirkama va yarim tirkamalar	2,7	2,0 b.
<b>Boshqalar</b>					
to`qimachilik mahsulotlari	1178,4	115,3	oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	12,1	108,0
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar	69,9	77,2	shisha va shisha buyumlar	9,1	87,5
qog`oz, karton va matbaa buyumlari	15,9	2,1 b.	daraxtlar va boshqa o`simliklar	1,8	105,9
sopol buyumlar	12,7	90,1	velosipedlar, tepkili avtomobillar; qo`g`irchoqlar uchun kolyaskalar; qo`g`irchoqlar	2,0	111,1

Xizmatlar eksporti hajmi 2775,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 24,5 %ini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 25,0 %ga o`sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to`g`ri keladi.

### Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko`ra, 2018 yilning noyabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, oktyabr oyiga nisbatan 110,4 mln. AQSh dollariga ko`p eksport qilindi va 723,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 252,5 mln. AQSh dollarga yetgan.

### 2018 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



### Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-noyabr)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 38,8 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan

tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko`rishimiz mumkin.

**O`zbekiston Respublikasining  
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O`rni	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Xitoy	1824,0	2502,6	15,6	22,1	2	1
Rossiya	1879,0	1893,3	16,1	16,7	1	2
Qozog`iston	969,9	1253,3	8,3	11,1	3	3
Turkiya	785,3	810,1	6,7	7,2	4	4
Afg`oniston	541,9	556,7	4,6	4,9	5	5
Qirg`iziston	164,9	241,3	1,4	2,1	9	6
Tojikiston	166,1	208,5	1,4	1,8	7	7
Frantsiya	132,7	173,4	1,1	1,5	6	8
Eron	247,7	153,4	2,1	1,4	8	9
Ukraina	91,4	91,2	0,8	0,8	11	10
Koreya Respublikasi	98,2	83,7	0,8	0,7	10	11
Turkmaniston	65,3	44,0	0,6	0,4	14	12
Germaniya	23,9	42,5	0,2	0,4	12	13
Latviya	72,0	37,4	0,6	0,3	18	14
Belarus	24,1	35,5	0,2	0,3	15	15
AQSh	21,8	28,1	0,2	0,2	13	16
Italiya	16,5	22,2	0,1	0,2	16	17
Hindiston	30,1	21,2	0,3	0,2	17	18
Yaponiya	11,3	12,4	0,1	0,1	19	19
Litva	5,6	9,7	0,0	0,1	20	20



**Respublikaning ayrim davlatlar  
bilan eksport tarkibi**  
(yanvar-noyabr oylari)

(mln. AQSh doll.)

	Xitoy Xalq Respublikasi		Rossiya Federatsiyasi		Qozog`iston		Turkiya	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>1824,0</b>	<b>2502,6</b>	<b>1879,0</b>	<b>1893,3</b>	<b>969,9</b>	<b>1253,3</b>	<b>785,3</b>	<b>810,1</b>
paxta tolasi	74,6	71,0	7,1	2,8	-	-	5,2	9,2
oziq-ovqat mahsulotlari	37,3	58,8	136,6	173,3	316,7	391,7	31,0	24,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	156,6	125,6	120,2	154,5	86,9	92,9	111,7	97,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	546,9	1119,7	444,2	518,8	324,5	504,0	0,6	2,4
qora va rangli metallar	116,0	122,3	46,7	53,1	46,9	36,2	435,0	473,9
mashina va asbob-uskunalar	13,0	4,0	98,7	50,5	46,0	39,9	49,9	30,6
xizmatlar	600,4	643,1	518,7	409,6	67,6	94,2	35,8	56,7
boshqalar	279,3	358,0	506,7	530,7	81,3	94,5	116,1	115,3

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida jami 1133,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 815 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`shish sur`ati - 37,5 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida 617,9 ming tonnadan ko`proq sabzavotlar 282,3 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 292,4 ming tonnaga ko`p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 286,2 ming tonna meva va rezavorlar 343,0 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 19,3 ming tonnaga ko`pdir.

## Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o`tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o`zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 625,3 mln.AQSh dollariga yetdi (o`tgan yilning mos davriga nisbatan 44,4 %ga o`sgan).

## Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
<b>Qozog`iston</b>	443,3	297,2	53,3	552,1	372,2	49,0
<b>Rossiya</b>	157,8	107,8	19,0	224,9	155,3	19,8
<b>Qirg`iziston</b>	49,9	28,1	6,0	83,0	74,9	7,3
<b>Afg`oniston</b>	44,6	37,2	5,4	67,6	49,3	6,0
<b>Xitoy</b>	18,5	14,2	2,2	53,5	37,6	4,7
<b>Turkiya</b>	25,7	29,4	3,1	20,5	21,7	1,8
<b>Pokiston</b>	4,5	3,2	0,5	24,9	19,0	2,2
<b>Vetnam</b>	8,5	5,7	1,0	22,4	14,5	2,0
<b>Eron</b>	10,2	8,8	1,2	11,3	8,7	1,0
<b>Ukraina</b>	6,4	4,5	0,8	11,7	7,6	1,0
<b>Belarus</b>	3,9	3,9	0,5	7,3	6,8	0,6
<b>Iroq</b>	7,7	10,1	0,9	4,9	5,2	0,4
<b>BAA</b>	7,3	6,2	0,9	8,6	6,8	0,8
<b>Latviya</b>	4,3	3,3	0,5	5,2	4,2	0,5
<b>Hindiston</b>	14,6	9,4	1,8	4,4	2,9	0,4
<b>Ozarbayjon</b>	3,6	3,8	0,4	3,6	3,8	0,3
<b>Boshqa davlatlar</b>	20,9	19,8	2,5	27,6	24,5	2,4

## To`qimachilik mahsulotlari eksporti

2018 yilning o`tgan davri mobaynida 1178,4 mln. AQSh dollari miqdorida to`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2017 yilning mos davriga nisbatan 15,3 %ga o`sib, umumiy eksport hajmining 10,4 %ini tashkil qildi. eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (56,7%), tayyor to`qima matolar va tikuvchilik kiyimlari (22,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 340 turdan ortiq mahsulotlar dunyoning 46 ta davlatiga eksport qilindi.

## To`qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibi

(2018 yil yanvar-noyabr holatiga)




Mustaqillikka erishgan ilk yillarda respublikamiz yengil sanoatida faqatgina paxta xom ashyosi eksport qilingan bo`lsa, hozirda esa tayyor to`qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida o`z o`rnini egallab kelmoqda.

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 17 340,7 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 36,8 %) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (41,9%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,2 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (8,2 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)




### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o`tgani yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgani yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgani yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	17340,7	136,8	100,0	6407,1	141,9	100,0	10933,6	133,9	100,0
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	1412,5	119,5	8,2	1023,9	172,8	16,0	388,6	65,9	3,6
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	2291,2	114,0	13,2	434,7	119,1	6,8	1856,5	112,9	17,0
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	784,7	120,0	4,5	751,4	119,5	11,7	33,3	131,6	0,3
<b>Qora va rangli metallar</b>	1631,9	136,0	9,4	1110,2	141,1	17,3	521,7	126,1	4,8
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	7268,7	160,0	41,9	1010,1	171,6	15,8	6258,6	158,3	57,2
<b>Xizmatlar</b>	2029,8	119,6	11,7	898,6	114,9	14,0	1131,2	123,7	10,3
<b>Boshqalar</b>	1921,9	137,7	11,1	1178,2	152,7	18,4	743,7	119,2	6,8

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o`shish sur`atlari bo`yicha quyida keltirilgan ma`lumotlardan shuni ko`rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida eng yuqori o`shish sur`atlari fevral, iyul, avgust, oktyabr oylarida kuzatilgan.



### Tovarlar va xizmatlar importining o`shish sur`atlari dinamikasi (o`tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o`shish sur`atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning noyabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar oktyabr oyiga nisbatan 0,6 %ga kamaygan.

### 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

	mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>					
shakar	291,0	x	hayvon yoki o`simlik yog`-moylari	47,0	115,8
bug`doy	237,9	148,6	qandolat mahsulotlari	41,6	113,4
un	98,4	111,9	pista moyi	16,2	19,4
tayyor hayvon yemi	114,7	149,9	margarin	25,2	92,3
choy	45,9	98,7	tsitrus mevalar	19,7	118,0


kartoshka	40,5	141,1	go`sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	15,8	146,3
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>					
farmatsevtika mahsulotlari	774,9	102,5	o`simliklarni o`stirish regulyatorlari	45,1	130,7
plastmassa va plastmassa buyumlar	511,6	120,5	kimyoviy zarralar	57,6	117,1
kauchuk i rezina mahsulotlari	200,9	142,6	kimyoviy shtapelli tola	53,4	104,9
organik kimyo birikmalari mahsuloti	126,6	113,1	aralashmalar va erituvchilar	45,7	126,2
parfumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	131,4	111,3	kaustik soda	30,0	121,5
bo`yoq ekstraktlari	119,5	111,5	kimyoviy va mineral o`g`itlar	13,7	2,4 b.
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>					
neftni qayta ishlash mahsulotlari	449,1	96,1	aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir	19,9	143,2
neft xom-ashyosi	230,9	2,1 b.	elektroenergiya	45,8	2,0 b.
<b>Qora va rangli metallar</b>					
qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	1453,2	136,0	rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	178,7	135,7
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>					
avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar	796,9	118,9	ekskavatorlar va buldozerlar	266,7	2,7 b.
to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	501,6	2,2 b.	kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrifugalalar	306,3	141,9
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	387,4	2,8 b.	engil avtomobillar	242,8	181,3
konditsionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	396,8	157,0	shinalar va pokrishkalar	175,9	150,9

qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunalari	271,6	172,2	tibbiy asbob-uskunalar	165,1	93,4
<b>Boshqalar</b>					
yog`och va yog`och buyumlar	563,1	132,7	boshqa tirik o`simliklar	35,6	131,9
qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar	197,7	106,2	asbest	41,2	151,5
tsement	160,1	7,8 b.	qimmatbaho bo`lmagan metallardan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	52,8	121,4
rangli metall konsentratlari va rudalari	95,1	102,3	o`rindiqli mebellar	26,6	112,7
tosh, gips va keramik buyumlar	81,9	104,7	o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari	23,7	90,1
qurilish majmualari konstruksiyasi	154,5	2,5 b.	yirik shohli mollar	46,6	179,2
shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	64,7	132,0	tirik parrandalar	8,0	97,6

### Qurilish materiallari importi

2018 yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida 1 075,3 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi hajmi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2017 yilning mos davriga nisbatan 27,4 %ga o`sb, umumiy import hajmining 6,2 %ini tashkil qildi. Import qilingan qurilish materiallari tarkibidan sement (14,8 %), yog`och va yog`och mahsulotlari (52,1 %), asbest (3,8 %), keramika mahsulotlari (3,1) hamda shisha va shisha buyumlar (5,0 %) asosiy ulushni egallagan.

## Qurilish materiallari importi tarkibi (2018 yil yanvar-noyabr holatiga)




Yuqoridagi infografikadan ko`rinib turibdiki, 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish materiallari import hajmi 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`shishiga yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to`yintirish bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

O`zbekiston Respublikaga  
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O`rni	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Rossiya	2461,8	3200,8	19,4	18,5	2	1
Xitoy	2471,1	3174,8	19,5	18,3	1	2
Korea Respublikasi	1132,9	1700,3	8,9	9,8	3	3
Qozog`iston	913,3	1357,4	7,2	7,8	4	4
Turkiya	599,8	1120,5	4,7	6,5	5	5
Germaniya	541,2	669,7	4,3	3,9	6	6
Yaponiya	134,3	512,9	1,1	3,0	14	7
Latviya	187,6	354,7	1,5	2,0	12	8
Belarus	131,2	345,0	1,0	2,0	8	9
AQSh	172,0	327,0	1,4	1,9	10	10
Ukraina	158,2	299,8	1,2	1,7	11	11
Litva	230,7	248,7	1,8	1,4	13	12
Italiya	138,5	246,5	1,1	1,4	7	13
Hindiston	278,4	234,7	2,2	1,4	9	14
Turkmaniston	93,9	200,1	0,7	1,2	19	15
Tojikiston	50,6	143,5	0,4	0,8	15	16
Qirg`iziston	70,1	121,7	0,6	0,7	17	17
Eron	51,8	118,5	0,4	0,7	18	18
Frantsiya	100,3	103,4	0,8	0,6	16	19
Afg`oniston	2,1	2,0	0,0	0,0	20	20


### Xizmatlar importi tarkibi, (%)



Xizmatlar importi hajmi 2029,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 11,7 %ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 19,6 %ga o`tdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo`ldi.




### 2018 yilda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2018 yilning o`tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar noyabr oyida, oktyabr oyiga nisbatan 11,2 mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 1828,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

### Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-noyabr)



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaga 159 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo`lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog`iston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 10 553,8 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 60,9 %ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o`tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganini quyidagi sxemalardan ko`rish mumkin.

#### **Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

DAVLAT NOMI	XITOIY	ROSSIYA	TURKIYA	KOREYA RESPUBLIKASI	GERMANIYA
MLN. AQSH DOLL.	1936,0	1231,6	598,7	592,6	516,2
O`TGAN YILGA NISBATAN, %	138,4	147,2	228,5	147,5	144,3
ULUSHI, %	26,6	16,9	8,2	8,2	7,1

### Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	KOREYA RESPUBLIKASI	TURKIYA	ROSSIYA	GERMANIYA
MLN. AQSH DOLL.	567,5	327,9	182,9	173,5	78,0
O`TGAN YILGA NISBATAN, %	113,7	123,7	127,3	112,4	87,0
ULUSHI, %	24,8	14,3	8,0	7,6	3,4

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi  
Tel.:71-230-80-42 (43)**